



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-15-123-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

**Tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning 2025-yilning
III chorak yakunlari bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumanida jinoyat va
huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni aniqlash, ularga imkon berayotgan
shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar
bo‘yicha hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son hamda 2025-yil 18-martdagi PQ-111-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning 2025-yilning III chorak yakunlari bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumanida jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish, ularni aniqlash, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning 2025-yil III chorak yakuni bo‘yicha korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish, korrupsion jinoyatchilikka qarshi kurashish va ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (M.Zavqiyev, O.Shirinov, M.Rasulov, S.Djumayeva):

- har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralarini ko'rish;

- mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda "mahalla yettiligi" har bir vakilining aniq mas'uliyatini belgilash vazifalari yuklatilsin.

3. Kattaqo'rg'on tumani ichki ishlar bo'limi boshlig'i A.Ochilovga:

- mahallalarda huquqbuzarlik tendensiyalarini tizimli tahlil qilib borish, natijalari yuzasidan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tuman idoralararo komissiyasining yig'ilishlarida tanqidiy muhokama qilish, qonunbuzilishlar yuzasidan qat'iy choralar ko'rish;

- profilaktika inspektorlari tomonidan har bir oila va xonadondagi muhitni, shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, infratuzilma va boshqa muammolarni o'rganish hamda bartaraf etish bo'yicha "Xavfsiz xonadon" va "Xavfsiz hovli" tizimini yo'lga qo'yish;

- ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, olib borilayotgan ishlarni "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish- oliy burchimiz!" konseptual g'oyasi asosida tashkillashtirish;

- aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

- tumanda korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

- korrupsiyani oldini olish maqsadida, tumanda joylashgan tashkilot, korxona va muassasalarda keng qamrovli targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda aholini ongli ravishda korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo'lishini shakllantirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishda davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining o'rni va mas'uliyatini oshirish vazifalari topshirilsin.

4. O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (G'.To'ychiyev)ga;

- aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli ishlarni tashkil etish, mahalla profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda samarali ish tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

5. Tumandagi barcha korxona, tashkilot va muassasa rahbarlariga;

- har bir rahbar o'zi boshchilik qilayotgan korxona, tashkilot va muassasada korrupsion jinoyatlarni oldini olish, korrupsiya holatlari sodir etilmasligini nazorat qilish;

- xodimlar o'rtasida korrupsiya jinoyatlari sodir etilmasligi yuzasidan huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha tushuntirish-targ'ibot ishlarini muntazam olib borish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi tahririyati (v.v.b. J.Normamatov)ga qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djo'rayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH